UO‘K 373.5.015.31:17.022.1:821.512.133.09-31

10-SINF O‘QUVCHILARI ESTETIK TARBIYALANGANLIGI KOMPONENTLARI VA TOPSHIRIQLARINI TABAQALASHTIRISH METODIKASI (Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani misolida)

Toshpulatov Akmal Xolmirzayevich,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchi
Termiz, O‘zbekiston
ORCID: 0009-0003-5855-6052
akmaljon767626@gmail.com

Maqolada 10-sinf o‘quvchilarini milliy xalq an’analari va urf-odatlari asosida estetik tarbiyalash jarayonining natijaviy tomoni tahlil qilinadi. Muallif tomonidan estetik tarbiyalanganlik tushunchasining ta’rifidan kelib chiqib uning to‘rt komponenti — obrazli-vizual, estetik, emotsional va reflektiv komponentlar – ajratilgan hamda ularning mezoni, ko‘rsatkichi va o‘lchov metodikasi ishlab chiqilgan. Maqolaning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, o‘quv topshiriqlari an’anaviy tarzda qiyinlik darajasi bo‘yicha emas, balki aynan shu komponentlar bo‘yicha tabaqalashtirilishi lozim. Diagnostika o‘quv jarayonining o‘ziga singdirilgan holda amalga oshiriladi. Taklif etilayotgan metodika uch hududning 12 ta umumta’lim maktabida, 61 nafar o‘qituvchi va 495 nafar o‘quvchi ishtirokida sinovdan o‘tkazilib, tajriba guruhida yuqori daraja 41,5 foizdan 73,8 foizga ko‘tarilgani aniqlangan.

Kalit so‘zlar: *estetik tarbiyalanganlik, obrazli-vizual komponent, estetik komponent, emotsional komponent, reflektiv komponent, tabaqalashtirilgan topshiriqlar, singdirilgan diagnostika, milliy an’analar, adabiy ta’lim.*

КОМПОНЕНТЫ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ ВОСПИТАННОСТИ УЧАЩИХСЯ X КЛАССА И МЕТОДИКА ДИФФЕРЕНЦИАЦИИ ЗАДАНИЙ ПО НИМ (на примере романа Абдуллы Кадыри «Минувшие дни»)

В статье анализируется результативная сторона процесса эстетического воспитания учащихся X класса на основе национальных народных традиций и обычаев. Исходя из авторского определения, выделены четыре компонента эстетической воспитанности — образно-визуальный, эстетический, эмоциональный и рефлексивный, — а также разработаны их критерии, показатели и методика измерения. Основная идея статьи состоит в том, что учебные задания должны дифференцироваться не по уровню сложности, а именно по этим компонентам. Диагностика осуществляется непосредственно в самом учебном процессе. Методика апробирована в 12 школах трёх регионов с участием 61 учителя и 495 учащихся; в экспериментальной группе высокий уровень возрос с 41,5 до 73,8 процента.

Ключевые слова: *эстетическая воспитанность, образно-визуальный компонент, эстетический компонент, эмоциональный компонент, рефлексивный компонент, дифференцированные задания, встроенная диагностика, национальные традиции, литературное образование.*

COMPONENTS OF AESTHETIC CULTIVATION OF TENTH-GRADE STUDENTS AND THE METHODOLOGY OF DIFFERENTIATING TASKS BY THESE COMPONENTS (on the example of Abdulla Qodiriy’s novel “Bygone Days”)

The article analyses the outcome dimension of the aesthetic education of tenth-grade students based on national folk traditions and customs. Proceeding from the author’s definition, four components of aesthetic cultivation are identified — figurative-visual, aesthetic, emotional and reflective — together with their criteria, indicators and measurement procedures. The central idea of the article is that learning tasks should be differentiated not by the level of difficulty but precisely by these components. Diagnostics is carried out in a form embedded into the learning process itself. The methodology was tested in twelve secondary schools of three regions with the participation of 61 teachers and 495 students; in the experimental group the high level rose from 41.5 to 73.8 per cent.

Keywords: *aesthetic cultivation, figurative-visual component, aesthetic component, emotional component, reflective component, differentiated tasks, embedded diagnostics, national traditions, literary education.*

Kirish. Umumiy o‘rta ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari qatorida o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ongli munosabat shakllantirish masalasi alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoni bilan tasdiqlangan maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturda o‘quv jarayonining tarbiyaviy salohiyatini kuchaytirish vazifasi qo‘yilgan [1]. Adabiy ta’lim bu vazifani hal etishda eng katta imkoniyatga ega fanlardan biri hisoblanadi, zero badiiy asar o‘quvchiga qadriyatni mavhum qoida sifatida emas, balki jonli inson taqdiri orqali yetkazadi.

Biroq amaliyotda muhim bir muammo saqlanib qolmoqda: badiiy asarni o‘rganish natijasida o‘quvchida qanday tarbiyaviy o‘zgarish yuz berganini o‘lchash mexanizmi yetarlicha ishlab chiqilmagan. O‘qituvchi ko‘pincha bilim darajasini baholaydi – o‘quvchi syujetni biladimi, obrazlarni sanay oladimi. Tarbiyalanganlik esa o‘lchovsiz qolib ketadi. Natijada adabiyot darsining tarbiyaviy samarasi haqidagi mulohazalar dalilga emas, umumiy taassurotga tayanadi.

Tadqiqot obyekti – 10-sinf o‘quvchilarini milliy xalq an’analari va urf-odatlari asosida estetik tarbiyalash jarayoni. Maqolada shu jarayonning natijaviy tomoni bilan bog‘liq ikki o‘zaro bog‘liq masala ko‘rib chiqiladi: birinchidan, estetik tarbiyalanganlikning o‘lchanadigan komponentlarini ajratish; ikkinchidan, o‘quv topshiriqlarini aynan shu komponentlar bo‘yicha tabaqalashtirish metodikasini asoslash.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Adabiyot o‘qitish metodikasining nazariy asoslari Q. Yo‘ldoshev tadqiqotlarida badiiy asarni idrok etish jarayonining bosqichliligi nuqtayi nazaridan yoritilgan [2]. Q. Husanboyeva va R. Niyozmetovalar adabiyot o‘qitish metodikasida o‘quvchining matn bilan mustaqil muloqoti va shaxsiy munosabat bildirishi asosiy natija ekanini ta’kidlaydilar [3]. S.I.Kambarova adabiyotni bir vaqtning o‘zida o‘quv fani hamda san’at turi sifatida o‘qitish metodologiyasini ishlab chiqib, badiiy idrokning estetik tabiatiga urg‘u beradi [4, 28-b].

Qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni masalasi T. Muxtarova ishlarida ijtimoiy-ma’naviy jihatdan tahlil qilingan [5, 419-b]. “O‘tkan kunlar” romanining milliy qadriyatlarni ifodalash salohiyati M.M.Bahriddinov va M. Madaminovalar tadqiqotida ko‘rib chiqilgan [6]. Pedagogik jarayonni loyihalash va uning natijasini o‘lchash masalalari O‘. Tolipov va M. Usmonboeva ishlarida texnologik yondashuv doirasida bayon etilgan [7]; pedagogik nazariyaning umumiy masalalari X. Ibragimov va Sh. Abdullayevalar qo‘llanmasida umumlashtirilgan [8]. Pedagogik tadqiqotda kompleks metodlardan foydalanish talabi V.I.Zagvyazinskiy va R. Ataxanovlar tomonidan asoslangan: tadqiqotning ishonchliligi bir necha mustaqil metod natijalarining o‘zaro tasdiqlanishi bilan ta’minlanadi [9, 89-b].

Mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, adabiy ta’limning tarbiyaviy natijasini o‘lchashga oid yaxlit komponentli tizim hozircha ishlab chiqilmagan. Aynan shu bo‘shliq mazkur tadqiqotning yo‘nalishini belgiladi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: ilmiy-uslubiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma, pedagogik tajriba-sinov hamda natijalarni matematik-statistik tahlil qilish (Styudent t-mezoni).

Tahlil va olingan natijalar. Tadqiqotda estetik tarbiyalanganlik deganda o‘quvchining badiiy asar vositasida milliy an’ana, urf-odat va axloqiy qadriyatlarni idrok etish, ularga estetik va hissiy munosabat bildirish hamda o‘z shaxsiy pozitsiyasini shakllantirish darajasi tushuniladi. Ta’rifda qayd etilgan to‘rt harakat – ilg‘ash, baholash, hissiy munosabat bildirish va shaxsiy tajriba bilan bog‘lab xulosa chiqarish – mos ravishda to‘rt komponentni yuzaga chiqaradi (1-jadval).

Komponentlar o‘zaro ierarxik emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi munosabatda bo‘ladi: obrazli-vizual komponent matnni idrok etishning boshlang‘ich shartini, reflektiv komponent esa uning yakuniy natijasini ifodalaydi. Ular tayanch va fanga oid kompetensiyalar bilan tenglashtirilmaydi: kompetensiyalar normativ talabni, komponentlar esa konstruktning ta’rifdan kelib chiqqan ichki tuzilmasini ifodalaydi.

An’anaviy differensiatsiyada topshiriqlar qiyinlik darajasi yoki o‘zlashtirish sur‘ati bo‘yicha ajratiladi. Bunday yondashuv bilim o‘zlashtirishni baholashda samarali, biroq tarbiyalanganlikni o‘lchashda yetarli emas: o‘quvchi murakkab topshiriqni bajara olishi, ammo o‘qiganiga shaxsiy munosabat bildira olmasligi mumkin. Shu sababli tadqiqotda tabaqalashtirishning boshqa asosi taklif etiladi: topshiriqlar estetik tarbiyalanganlik komponentlari bo‘yicha guruhlanadi va har bir komponent uchun alohida topshiriq turi hamda baholash mezoni belgilanadi (2-jadval). Har bir o‘quv modulida bitta yetakchi komponent ajratilib, unga oid topshiriqlar ustuvor qo‘llanadi; qolgan uch komponent hamrohlik darajasida ishtirok etadi.

1-jadval.

Estetik tarbiyalanganlik komponentlari, mezon va ko‘rsatkichlari

Komponent	Mazmuni	Mezon	Ko‘rsatkich
Obrazli-vizual	Matndagi an’ana, urf-odat va marosim tasvirlarini ilg‘ash, ularni tasavvurda qayta tiklash	Matndan etnomadaniy detalni ajrata olish	Ajratilgan detallarning matndagi mavjud detallarga nisbati
Estetik	An’ananing badiiy-estetik qimmatini did bilan baholash	Baho-mulohazaning matn dalillari bilan asoslanganligi	Dalilga tayangan baholarning umumiy javoblardagi ulushi
Emotsional	Qahramonlar taqdiri va axloqiy tanloviga hissiy hamdardlik bildirish	Emotsional javobning ifodalanishi va motivlanganligi	“Yoqadi / yoqmaydi” darajasidan sababi izohlangan munosabatga o‘tish
Reflektiv	O‘qilganni shaxsiy tajriba bilan bog‘lash va mustaqil xulosa chiqarish	Shaxsiy pozitsiyaning mustaqilligi va xulosaning asoslanganligi	O‘z hayotidan mos misol keltira olish va tatbiqiy xulosa bildirish

2-jadval.

Topshiriqlarning komponentlar bo‘yicha tabaqalashtirilishi

Komponent	Topshiriq turi va metod	Topshiriq namunasi (“O‘tkan kunlar” romani asosida)
Obrazli-vizual	Matn ustida ishlash, “Yelpig‘ich (Veyer)”, tasvirni izohlash	Sovchilik epizodidan milliy urf-odatga oid barcha detallarni ajrating va har biriga izoh yozing: bu detal qaysi urf-odatga tegishli va qanday vazifa bajaradi?
Estetik	Obraz tahlili, qiyosiy tahlil, tahliliy esse	Kumushning ilk tasvirida muallif qanday tasvir vositalaridan foydalangan? Tasvirning qaysi jihati eng ta’sirli — matndan dalil keltirib asoslang.
Emotsional	“Davra suhbati”, bahs-munozara, dramatizatsiya	Zaynabning fojiasida kim ko‘proq aybdor — uning o‘zimi, atrofdagilarmi yoki davr an’analarimi? Javobda his-tuyg‘uni nomlab, sababini matn dalili bilan asoslang.
Reflektiv	Refleksiv tahlil, ijodiy loyiha, maktub-esse	Romandagi bir urf-odatni tanlang va oilangizdagi katta yoshli kishi bilan suhbatlashib, u bugun qanday saqlangani yoki o‘zgarganini aniqlang; shaxsiy xulosangizni yozing.

Estetik tarbiyalanganlikni baholash uchun o‘quv jarayonidan ajratilgan alohida test majmuasi tuzilmadi – diagnostika yuqorida keltirilgan topshiriq va metodlarning o‘zi orqali amalga oshirildi. Har bir modul yakunida oraliq diagnostika o‘tkazilib, uning natijasiga qarab keyingi bosqich topshiriqlarining taqsimoti qayta ko‘rib chiqiladi. Masalan, o‘quvchi matndagi etnomadaniy detalni ajrata olmasa, obrazli-vizual komponentga oid topshiriqlar ulushi oshiriladi; baho-mulohaza matn dalili bilan asoslanmasa, estetik komponent topshiriqlari kuchaytiriladi. Shu tariqa tabaqalashtirish statik emas, dinamik xususiyat kasb etadi.

Metodika 2021–2023-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlarining 12 ta umumta’lim maktabida, 61 nafar adabiyot fani o‘qituvchisi va 495 nafar X-sinf o‘quvchisi ishtirokida sinovdan o‘tkazildi. Aniqlovchi va yakuniy bosqichlarda ayni bir instrumentariy qo‘llanildi – bu o‘lchov natijalarining qiyoslanuvchanligini ta’minladi. Tajriba guruhida estetik tarbiyalanganlikning yuqori darajasi 41,5 foizdan 73,8 foizga ko‘tarildi; nazorat guruhi bilan qiyoslaganda samaradorlik farqi 11,17 foizni tashkil etdi. Natijalarning statistik ishonchliligi Styudent t-mezoni yordamida tekshirilib, $t = 7{,}148$ qiymati olindi. Bu ko‘rsatkich 0,05 ahamiyatlilik darajasidagi kritik qiymatdan ($t = 1{,}96$) sezilarli darajada yuqori bo‘lib, farqning tasodifiy emasligini tasdiqlaydi [9, 89-b].

Munozara. Olingan natijalar komponentlar kesimida notekis taqsimlangan: eng katta o‘sish reflektiv va emotsional komponentlar bo‘yicha qayd etildi. Bu qonuniy holat, zero an’anaviy metodikada aynan shu

ikki komponent kam ishlanadi – ular bilim o‘zlashtirish bilan bevosita bog‘lanmagani uchun baholash tizimidan tashqarida qoladi. Obrazli-vizual komponent bo‘yicha o‘sish nisbatan mo‘tadil bo‘ldi, chunki matn ustida ishlash ko‘nikmasi an’anaviy darsda ham shakllantiriladi.

Diagnostikaning o‘quv jarayoniga singdirilishi alohida muhokamani talab qiladi. Bunday yondashuvning pedagogik afzalligi shundaki, o‘quvchi baholanayotganini alohida sinov vaziyati sifatida his etmaydi, natijada uning javobi sun’iy emas, tabiiy bo‘ladi. Bu, ayniqsa, emotsional va reflektiv komponentlar kabi bevosita o‘lchash qiyin bo‘lgan jihatlarni baholashda ahamiyatlidir. Ayni paytda mazkur yondashuv o‘qituvchidan yuqori metodik tayyorgarlikni talab qiladi: u topshiriqni bir vaqtning o‘zida ham o‘quv, ham diagnostik vosita sifatida qo‘llay olishi lozim. Shu bois metodikani ommaviy joriy etishda o‘qituvchilar uchun maxsus uslubiy ta’minot zarur bo‘ladi.

Tadqiqot doirasida adabiy ta’lim mazmunini tarixiy-davriy, etnomadaniy va ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmuni bilan birlashtiruvchi fanlararo integratsiya masalalari ham ko‘rib chiqilgan edi [10]. Mazkur maqolada taklif etilayotgan tabaqalashtirish metodikasi o‘sha integratsiyaning natijaviy tomonini ta’minlaydi.

Xulosa. Estetik tarbiyalanganlikni yaxlit va o‘lchanmaydigan sifat holida emas, balki to‘rt komponentdan iborat tuzilma sifatida qarash uni pedagogik diagnostika obyektiga aylantiradi. Har bir komponent uchun aniq mezon va ko‘rsatkich belgilanishi o‘qituvchiga o‘quvchining qaysi jihatda qiyinchilikka duch kelayotganini aniqlash imkonini beradi.

Topshiriqlarni qiyinlik darajasi bo‘yicha emas, komponentlar bo‘yicha tabaqalashtirish adabiy ta’limning tarbiyaviy vazifasiga ko‘proq mos keladi, chunki u o‘quvchining bilimini emas, matnga bo‘lgan munosabatini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Diagnostikaning o‘quv jarayoniga singdirilishi esa o‘lchov natijalarining tabiiyligini ta’minlaydi va qo‘shimcha o‘quv vaqtini talab qilmaydi.

Taklif etilayotgan metodika “O‘tkan kunlar” romani misolida sinovdan o‘tkazilgan bo‘lsa-da, uning tuzilmasi milliy an’ana va urf-odatlar keng aks etgan boshqa badiiy asarlarni o‘rganishga ham tatbiq etilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni.

2. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 152 b.

3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. – 352 b.

4. Kambarova S.I. Adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitish metodologiyasi: ped. fan. d-ri (DSc) dis. avtoref. – Toshkent, 2024. – 71 b.

5. Muxtarova T. Qadriyatlarning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati va yoshlar tarbiyasidagi o‘rni // Pedagogs: international research journal. – 2025. – T. 81, № 1. – B. 419–421.

6. Bahriddinov M.M., Madaminova M. “O‘tkan kunlar” romanida milliy tarovat masalalari tahlili // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Buxoro, 2023.

7. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b.

8. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 288 b.

9. Загвязинский В.И., Атаханов Р. Методология и методы психолого-педагогического исследования. – Москва: Академия, 2005. – 208 с.

10. Toshpulatov A.X. Adabiyotni tarix fani bilan gorizontal, vertikal bog‘lab o‘qitishda o‘quvchi badiiy tafakkurini rivojlantirish shakl, metod va vositalari // QarDU xabarlari. – Qarshi, 2025. – № 2(1). – B. 168–173.

11. Qodiriy A. “O‘tkan kunlar” romani. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – 390 b.

12. Umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturi. Adabiyot. 10-sinf uchun. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 34 b.